

**MAMLAKATDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLİYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

Raxmatullayev Jamshid Murodillayevich

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimizda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qonunchilikdagi o'zgarishlar, mavjud muammolar hamda xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Oliy ta'lim, moliyalashtirish, budjet mablag'lari, budjetdan tashqari mablag'lar, endaument, venchurli moliyalashtirish

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСИРОВАНИЯ ВУЗОВ В СТРАНЕ

Аннотация

В данной статье разработаны реформы, проводимые в сфере высшего образования в нашей стране, изменения в законодательстве, существующие проблемы, выводы и предложения.

Ключевые слова. Высшее образование, финансирование, бюджетные средства, внебюджетные фонды, эндаумент, венчурное финансирование

**PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF FINANCING OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN
THE COUNTRY**

Annotation

This article develops the reforms carried out in the field of higher education in our country, changes in legislation, existing problems, conclusions and suggestions.

Keywords. Higher education, financing, budgetary funds, non-budgetary funds, endowment, venture financing.

Hozirgi davrda barcha sohalarda bo'lgani kabi globallashuv va axboratlashuv jarayonida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy boshqaruvini puxta o'ylangan rejali tarzda yo'lga qo'yilishi va unda investitsion munosabatlarni yangicha boshqaruv shakllarini qo'llab takomillashtirish zamon talabiga aylangan.

Oliy ta'lim muassasalaridagi jarayonni tashkillashtirishda moliyaviy masalalarini samarali hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalari asosan respublika budjet ta'minotida bo'lishiga qaramay budjetdan tashqari moliyaviy mablag'larni topish, uni oliy ta'lim tizimiga yo'naltirish masalalari ham dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim tizimi faoliyatini moliyalashtirish tizimining samaradorligi oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarini nafaqat o'quv faoliyati bilan, balki ilmiy va innovatsion faoliyatni tijoratlashtirish, shuningdek qo'shimcha moliyaviy manbalarni izlab topishga asos bo'ladi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, ularga moliyaviy faoliyatida erkinliklar berish, ularni bosqichma bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish jarayoni olib borilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda 36 ta oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik

berilgan hamda ularga moliyaviy mablag'larni boshqarishda bir qator erkinliklar berilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda taqsdirlangan "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qaroriga muvofiq moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolatlari berilmoqda:

- ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash;
- talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;
- ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish;
- o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilashga oid qarorlar qabul qilish;
- professor-o'qituvchilar shtat birliklarini kiritish me'yorlarini ishlab chiqish;
- o'z mablag'lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish;
- xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni mualliflik huquqi bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan to'g'ridan to'g'ri xarid qilish;
- bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash;
- avtotransport vositalarining yo'l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko'rsatish talablarini belgilashi. Shuningdek, yuqoridagi qaror bilan moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalari quyidagilarni nazarda tutuvchi moliyalashtirish tartibiga o'tkazilgan:
- barcha ta'lim yo'nalishlari va bosqichlari bo'yicha bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdori hisoblab chiqiladi;
- davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida bir talabaga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib belgilanadi;
- davlat granti asosida ta'lim olayotgan talabalar uchun budjet mablag'lari bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora hamda oliy ta'lim muassasasi o'rtasida imzolananadigan bitim asosida ajratiladi;
- davlat granti asosida ta'lim olayotgan talabalar uchun ajratilgan budjet mablag'lari (bundan maqsadli mablag'lar mustasno) oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi va hisobot davri oxirida mablag'larning qoldig'i oliy ta'lim muassasasi ixtiyorida qoldiriladi;
- davlat buyurtmasi sifatida ajratilgan mablag'lar hamda to'lov-kontrakt mablag'lari bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasi tegishliligi bo'yicha yuqori turuvchi vazirlik va idorada ro'yxatdan o'tkaziladi hamda ulardan foydalanish Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi uchun belgilangan tartibga o'xshash tartibda amalga oshiriladi. Bunda, moliya yili davomida daromadlar va xarajatlar smetasiga kiritiladigan o'zgartirishlar Moliya vazirligi bilan kelishilmaydi;
- to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymati bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib, biroq oliy ta'lim muassasasini o'zini o'zi to'liq moliyaviy ta'minlash, istiqbolda rivojlantirish hamda ta'lim xizmatlari bozoridagi o'zaro raqobat asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda taqsdirlangan "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlar

to'g'risida"gi

PQ-60-sonli qaroriga muvofiq esa

Mamlakatimiz davlat oliy ta'lim muassasalarini samarali moliyalashtirish borasida 2022/2023 o'quv yilidan boshlab moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalariga quyidagi qo'shimcha vakolatlar berilmoqda:

a) akademik mustaqillik sohasida:

- o'quv rejalari, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lim tilini hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish shaklini belgilash;
- bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o'qish davomiyligi muddatlarini belgilash;
- doktoranturada to'lov-kontrakt asosida o'qish qiymatini belgilash, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish;
- doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash;
- magistratura bosqichida ta'limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha qo'sh malakalar, shu jumladan amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish;
- o'zaro kelishuvlar asosida oliy ta'lim muassasalari bilan akademik mobillikni amalga oshirish;
- oliy ta'lim muassasasi va uning tuzilmasidagi ta'lim muassasalari uchun o'z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish;
- ta'lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish;

b) tashkiliy-boshqaruvdagi mustaqillik sohasida:

- faoliyatining asosiy yo'nalishi ta'lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan, davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish;
- oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlardan qat'i nazar muassasaning tuzilmasini tasdiqlash va shtat birliklari sonini belgilash;
- mehnat bozoridagi ehtiyojdan kelib chiqib, yangi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarni ochish, amaldagi ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklarni tugatish;
- pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid tartibni belgilash;
- xorijiy davlat fuqarolarini to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish va masofaviy ta'lim olish shaklida o'qitishni tashkil etish.

Shuningdek, mamlakatimizda moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalari:

- davlat oliy ta'lim muassasalari Soliq [kodeksiga](#) muvofiq soliq to'lashdan ozod etilgan;
- moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalariga qonunchilikda oliy ta'lim muassasalari uchun nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tatbiq etiladi;
- moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalariga ijtimoiy soliqning 12 foiz miqdordagi stavkasi qo'llanadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish, ularni samarali moliyalashtirish tizimini ishlab chiqish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bir qator hal etilishi lozim

bo'lgan muammolar mavjud. Xorij va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlarini va tajribasini o'rgangan holda yuqoridagi kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi, jumladan:

- professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlarning mehnatiga haq to'lashning samarali mexanizmi va me'yorlari ishlab chiqilmagan. Shu boisdan, ularning ish haqlari va ularga to'lanadigan ustama hamda mukofotlarni berish shartlari va tartibi bo'yicha aniq normalarni ishlab chiqish lozim, jumladan KPI tizimini joriy etishni tezlashtirish lozim;
- oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi ayrim ishchi xodimlarning ish haqi razryadlarining ularning ish hajmi va malaka (lavozim) talablariga mos emas. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida oliy ma'lumot talab etadigan shunday lavozimlar borki, ularning ish haqlari 1,5-2 mln so'mga ham yetmaydi. Bunday ish haqiga hech qanday oliy ma'lumotli shaxs ishlashni xohlamaydi, ishlaydiganlarning ham samaradorlik ko'rsatkichi juda past. Ularga qo'shimcha ustama belgilashdan ko'ra, shaffoflikni ta'minlash maqsadida mazkur lavozimlarga qo'yiladigan oliy ma'lumot talabani o'rta yoki o'rta maxsusga tushirish yoxud ularning ish haqlarini (razryadini) oshirish maqsadga muvofiq;
- oliy ta'lim muassasalari davlat xaridlarini amalga oshirishdagi noqulayliklar hamda buyurtmachi va yetkazib beruvchi o'rtasida shartnoma shartlarining bajarilmaslik muammolari tez-tez kuzatilmoqda. Davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini qayta ko'rib chiqish, buyurtmachi va yetkazib beruvchilarning o'z majburiyatlarini majarimaslik uchun javobgarligini oshirish zarur;
- oliy ta'lim muassasalarining talabalarning to'lov-kontrakt summalariga qaram bo'lib qolayotganligi, ularda qo'shimcha manbalar jalb qilish bo'yicha samarali mexanizmning mavjud emas. Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha mablag'larni jalb etish, mavjud mablag'lardan samarali foydalanish mexanizmini ishlab chiqish zarur;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 oktabrdagi PF-5847-son farmoniga muvofiq oliy ta'lim muassasalarida endowment fondlarni tashkil etishga ruxsat berilganligiga qaramasdan, bu borada oliy ta'lim muassasalari tomonidan deyarli hech qanday ishlar amalga oshirilmayapti. Bu boradi oliy ta'lim muassasalarida alohida bo'limlarni tashkil etish zarur;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi PF-5847-sonli farmoniga muvofiq oliy ta'lim muassasalarini venchurli moliyalashtirish orqali moliyaviy mablag' bilan ta'minlashga ruxsat berilganligiga qaramasdan, bunday mablag'larni jalb etish ishlari juda sust amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy va innovatsion loyihalari, startap loyihalarini moliyalashtirish mazkur fondlarni mablag'larini jalb etishga e'tibor qaratish lozim va boshqalar.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarori
3. Sherov, A. (2019). Reforms in the system of higher education and their impact on financial stability. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 21.

4. Шеров, А. Б. (2021). Олий таълим муассасаларини бюджет маблағлари ҳисобидан молиялаштиришни такомиллаштириш йўллари. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 1121-1133.
5. Long N.V. "Financing higher education in an imperfect world" *Economics of Education Review* xxx (xxxx) xxx-xxx
6. Рахмонов Д. "Ўзбекистонда ижтимоий соҳани молиялаштиришни такомиллаштиришнинг методологик асослари. –Т.: "Fan va texnologiyalar", 2017, 248 б.
7. Махмудов А. Олий таълим муассасаларида молиявий ресурсларни бошқариш механизмини такомиллаштириш, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, 2019, -45б.